

## **Xizmatlar sohasini rivojlanishi – kelajakdagi istiqbollar uchun bugungi natijalar**

**Xizmatlar sohasi** – bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan erkin umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Xozirgi kunda insonning intellektual mehnati alohida rivojlanish va qiymatga ega bo'lmoqda, uning bo'linishi yuqori ilmiy tayyorgarlikni, ko'p sonli ish o'rinlarini, odamlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini va ijtimoiy farovonlikni oshirishni talab qiladigan ko'plab mutaxassislik va kasblarni yaratmoqda.

Ushbu tendentsiyalar xizmatlar sohasi va boshqaruv bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson faoliyatining boshqa sohalariga nisbatan uning jadal o'sishini belgilaydi. Iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqori daromadi unga xos xususiyatdir. Shu bilan birga, xizmatlar ro'yxati doimiy ravishda kengayib bormoqda.





2019-yil 1-noyabr holatiga viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 22874 birlikga yetdi. Xizmatlar sohasida jami 14725 birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. 2018-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 28,9 % ga oshdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi sezilarli darajada salmog'lidir. Shunday qilib, 2019-yil 1-noyabr holatiga, u 64,4 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: kuzatilgan davrda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 15,4 %, qurilish - 10,6 % ga etdi va atiga 9,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keladi.


**2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-noyabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (37,4 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning soni 12,0 % ni tashkil etdi.

**2019-yil 1-noyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi va xizmatlar sohasidagi tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ularning umumiy sonidagi ulushi 9,0 % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

**Ma'lumot uchun:** 2018-yil 1-noyabr holatiga, xizmatlar sohasida 11423 birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari - 32,4 %, tashish va saqlash - 9,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,6 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 4,3 % axborot va aloqa - 1,8 %, , boshqa turlar - 42,1 % ni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatda xizmatlarlar sohasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega va shunga ko'ra, tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish sohasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zarur.

So'nggi yillarda viloyatda tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va biznesni yuritish uchun qulay sharoit yaratish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, soliq tizimi tubdan isloh qilindi, ruxsatnoma hujjatlarni olish tartibi soddalashtirildi va tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlar bekor qilindi.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, o'tgan yilga nisbatan, 2019-yil 1-noyabr holatiga ularning soni 2670 birlikga ko'paydi va 11370 birlikni tashkil etdi, o'sish 30,7 % ga oshdi.

Xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 77,2 % ni kichik tadbirkorlik sub'ektlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019- yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, %**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2019-yil 1-noyabr holatiga, kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 58,5 % ga etdi.


**Xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari**



O'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3302 birlikga ko'paydi.

**2019-yil 1-noyabr holatiga xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar  
sonining o'sishi**


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



O'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasida yuqori o'sish sur'atlari - 49,1 % kuzatildi. Ushbu sohada band bo'lgan korxonalar va tashkilotlar soni 1816 birlikga ko'paydi va 5516 birlikga etdi.

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (3490 birlik) o'tgan yilga nisbatan 2066 birlikga ko'paydi.

**2019-yil yanvar-oktyabr oylarida  
xizmatlar sohasida band bo'lgan yangi tashkil  
etilgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlik**



Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni (3303 birlik) 2213 birlikga ko'paydi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlab chiqarilgan bozor xizmatlar hajmini oshishiga olib keladi.


Shunday qilib, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6592,7 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 1253,6 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 12,7 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'satilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida ularning ulushi 31,3 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (24,8 %), moliyaviy xizmatlar (14,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (4,7 %) bo'yicha qayd etildi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar - 1,3 % sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmining bir oz oshishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,8 % ga etdi. Shuningdek kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 2,1 % , shaxsiy xizmatlari - 2,1% bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan ulush qayd etildi.

## 2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Sifatli o'zgarishlar va institutsional islohatlar chuqurlashishi bilan bir qatorda chakana savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmatlar kabi xizmatlar turlari asosan xususiy tadbirkorlikni faollashuvi hisobiga jadal rivojlanmoqda.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish omili, joriy yilning o'tgan davriga nisbatan moliyaviy (415,1 mlrd. so'mga) va savdo xizmatlari (315,0 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (213,8 mlrd. so'mga), ta'lim sohasida (101,3 mlrd. so'mga), yashash va ovqatlanish (48,3 mlrd. so'mga), ijara xizmatlari (24,2 mlrd. so'mga), shuningdek boshqa (24,1 mlrd. so'm) xizmatlari hajmining oshishi hisoblanadi.

**2019- yil yanvar-oktabr oylarida umumiy xizmatlar tarkibida ustun bo'lgan xizmat turlari, mlrd. so'm**



**2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	<b>Hajmi, mln. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>6 592 726,1</b>	<b>111,5</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	310 720,4	113,3
Moliyaviy xizmatlar	929 314,0	173,2
Transport xizmatlari	1 636 868,6	104,0
shu jumladan:		
avtotransport xizmatlari	1497 685,6	101,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	292 594,7	102,1
Savdo xizmatlari	2 061 353,6	104,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	165 793,1	103,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	361 743,4	112,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	120 159,6	108,3
Ijara xizmatlari	170 516,8	101,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	139 815,0	102,5
Shaxsiy xizmatlar	139 065,6	103,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	87 641,1	103,3
Boshqa xizmatlar	177 140,2	102,6

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (173,2 %), me'morchilik, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (112,5 %) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (108,3%) qayd etildi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**



Yuqori bo'lmagan o'sish ijara xizmatlari (1,8 %) shuningdek yashash va ovqatlanish xizmatlarida (2,1 %) kuzatildi.


Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Bir mamlakatning boshqa davlatlarlar bilan tovarlar importi va eksportidan iborat bo'lgan savdosi tashqi savdo, turli mamlakatlarning bir-biri bilan umumiy savdo-sotig'i xalqaro savdo hisoblanadi. Ma'lum bir davlat ichida savdo ijtimoiy zarur iste'molchiga tovarlarni etkazib berish funksiyani bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

Savdo shu jumladan, elektron xizmatlarining yalpi ishlab chiqarilgan hajmi joriy narxlarda yalpi daromadi, ya'ni sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati aks ettiradilar. Tovarlarini boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotish bo'yicha bitim tuzilgan taqdirda, xizmatlar qiymatida mukofot miqdori aks ettiriladi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 31,3 % ni tashkil etib, bu 2 061,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uchi – 81,9 % ga to'g'ri keladi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



2019-yil yanvar-oktabr oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,4 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismi Buxoro shahriga – 680 089,2 mln. so'm yoki 33,0 % ga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng katta hajm G'ijduvon – 336 989,2 mln. so'm (16,3 %), Buxoro - 134 313,0 mln. so'm (6,5 %) tumanlari va Kogon shahrida – 188 823,9 mln. so'm (5,8 %) kuzatildi.

## 2019 yil yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari hajmi, mln. so'm




Savdo xizmatlarining nisbatan past hajmi Qorovulbozor 33 798,5 mln. so'm (1,6 %) Kogon 63 155,1 mln. so'm (3,1 %), Shofirkon 85 453,8 mln. so'm (4,1 %), Olot 92 170,9 mln. so'm (4,5 %) va Jondor 94 476,5 mlrd. so'm (4,6 %) qayd etildi.

Transportning rivojlanish tarixi inson jamiyatining tarixidan ajralmasdir. Qadimgi davrlarda paydo bo'lgan transport, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishi va insonlarning yashash sharoitlari bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanib, takomillashmoqda.

Buning sababi, mehnat qurollari va buyumlari shuhuhgdek insonning o'zi o'zgarishga harakat qilmasdan iste'mol tovarlari yoki boshqa maqsadli yo'naltirilgan faoliyatni ishlab chiqarish mumkin emas.

Ta'kidlash joizki, transport xizmatlari hajmining o'sishi, birinchi navbatda, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan boqliq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, Qurilish loyihalarini yanada amalga oshirish, bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish, shuningdek transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

## 2019-yil yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlarning jami transport xizmatlaridagi ulushi va o'sish sur'atlari, %






Pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohatlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 929,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 415,1 mlrd. so'mga oshdi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi, %




Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 89,3 % ni tashkil etadi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 310,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 113,3 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 95,6 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida  
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**



Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 0,9 %, nashriyotchilik xizmatlari – 2,0 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar – 0,6 %, axborotlashtirish xizmatlari – 0,6 %, boshqa xizmatlar – 0,3 % ni tashkil etishi qayd etildi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

2019-yil yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 361,7 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 5,5 % ni tashkil etdi.


**2019-yil yanvar-oktabr oylarida  
shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so'm**



Ko'rsatilgan ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Buxoro shahrida qayd etildi. 2019-yil yanvar-oktabr oylarida 274,9 mlrd. so'mga yetdi.

2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 102,1 % ni tashkil etdi, hajmi esa 48,3 mlrd. so'mga oshdi va 292,6 mlrd. so'mga etdi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari**




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Buxoro shahrida - 160,3 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 23,9 mlrd. so'mga oshishi kuzatildi.

**2019 yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmini taqqoslash, mlrd. so'm**



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 84,1 % bilan ustunlik qiladi.

**2019-yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %**



2019-yil yanvar-oktabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,9 % ni tashkil etdi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.


Ijtimoiy, siyosiy, jamoatchilik muammolarini, hududlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan, ularning barqaror rivojlanishsiz hal qilib bo'lmaydi. Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin. Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 59,4 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, eng katta ulush G'ijduvon (9,9 %), Buxoro (3,8 %), Vobkent (3,5 %) tumanlari va Kogon shahri (3,3 %) da qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



**2019-yil yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>6 592 726,1</b>	<b>111,5</b>	<b>3 460,0</b>
Buxoro tumani	159 878,5	108,3	1 631,4
Vobkent tumani	250 520,2	108,1	1 525,7
Jondor tumani	230 718,5	108,8	1 673,1
Kogon tumani	653 573,8	108,7	2 174,2
Olot tumani	175 096,4	108,8	1 016,8
Peshko' tumani	136 368,5	110,7	1 773,3
Romitan tumani	194 722,4	106,9	1 200,5
Shofirkon tumani	115 325,9	100,2	6 371,6
Qorako'l tumani	165 486,0	108,5	1 367,7
Qorovulbozor tumani	210 685,8	107,0	1 510,3
G'ijduvon tumani	165 407,5	108,5	944,1
shaharlar:			
Buxoro shahri	3 916 343,0	114,1	14 047,1
Kogon shahri	218 599,6	107,0	3 595,4


*Dastlabki ma'lumotlar*

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 613,6 ming so'mga oshdi va 3 460,0 ming so'mga teng bo'ldi, o'sishi 9,7 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Buxoro shahri etakchi o'rinni egallaydi. Bu erda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 14 047,1 ming so'm ekvivalentida qayd etildi.

Shofirkon (944,1 ming so'm), Jondor (1 016,8 ming so'm) va Qorako'l (1 200,5 ming so'm) viloyatlarida boshqa shahar va tumanlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi past.

## 2019-yil yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Buxoro shahri (13,2 %), Kogon (8,1 %), G'ijduvon (7,1 %), Vobkent (6,9 %) va Jondor (6,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Qorako'l (105,1 %), Romitan (105,2 %), Buxoro (106,0 %) tumanlari va Kogon shahri (108,8 %) da qayd etildi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Keyinchalik yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlash, investitsiya, soliq, pul-kredit siyosatini, fan va texnik siyosatini takomillashtirish va yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali kichik biznesni rivojlantirish bozor xizmatlarining tarmoqlar tarkibida, sifatli tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi.

Bu O'zbekistonda xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning oqilona tarkibini shakllantirish, aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirish imkonini berdi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

**65-223-79-41**